

UDK 547.551.525.211.1

PRUNUS ARMENIACA МАҒЗИ TARKIBIDAGI ВИТАМИН В₁₇

Xomidov Inomidin Ilmidinovich,
Andijon davlat tibbiyot instituti, tibbiy kimyo kafedrası dotsenti,
kimyo fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
xomidov.70@mail.ru <https://orcid.org/0000-0001-7050-9302>
Mamirjonova Mexrinov Xursandbek qizi,
Andijon davlat tibbiyot instituti, farmatsiya yo'nalishi, 2-kurs talabasi.
mamirjonovamexrinov@gmail.com
Mirzayeva Maftuna Sherzodbek qizi,
Andijon davlat tibbiyot instituti, farmatsiya yo'nalishi, 2-kurs talabasi.
maftunamirzayeva95@gmail.com

Аннотация: Мақолада ўрик мағзининг доривор хусусиятлари, таркиби, табобатда ва тиббиётда қўлланилиши, олиб борилган тадқиқотлар натижалари таҳлил этилган.

Калит сўзлар: ўрик, ўрик мағзи, *Prunus armeniaca*, оксил, углевод, канд. микроэлементлар, амигдалин, ўсма, эмульсин, витамин В₁₇.

ВИТАМИН В₁₇ В СОСТАВЕ КОСТОЧКИ *PRUNUS ARMENIACA*

Аннотация: В статье анализируются лечебные свойства косточек абрикоса, их состав, применение в народной и традиционной медицине, а также результаты проведенных исследований.

Ключевые слова: абрикос, косточка абрикоса, *Prunus armeniaca*, белок, углевод, сахар. микроэлементы, амигдалин, опухоль, эмульсин, витамин В₁₇.

VITAMIN B17 IN PRUNUS ARMENIACA SEEDS

Annotation: The article analyzes the medicinal properties of apricot kernel, its composition, its use in medicine, and the results of conducted research.

Key words: apricot, apricot kernel, *Prunus armeniaca*, protein, carbohydrate, sugar. trace elements, amygdalin, tumor, emulsin, vitamin B₁₇.

Mamlakatimizda obodonlashtirish, ko'klamzorlashtirish borasida ulkan ishlar olib borilmoqda. Ko'chatlar, ayniqsa mevali ko'chatlar ekish xukumat miqiyosidagi siyosiy jarayonga aylangan desak mubolag'a bo'lmaydi. Albatta, bu chora tadbirlar aholini oziq-ovqat maxsulotlariga, meva-sabzavotlarga bo'lgan ehtiyojini mumkin qadar ko'proq qondirishga, insonlarning ko'proq tabiiy mahsulotlarni iste'mol qilishlarini ta'minlashga, sog'lom turmush tarziga erishishlariga qaratilgan. Shu nuqtai nazardan o'rik – to'yimli, foydali, shifobaxsh mevali o'simlik hisoblanadi [1]. Shuningdek, yurtimizda meva “chiqindilari” dan unumli foydalanish zarurligiga yildan-yil ko'proq e'tibor qaratilmoqda. O'rik mag'zi ana shunday meva “chiqindisi”



bo'lib, ko'p hollarda unga e'tibor berilmaydi. Aslida o'rik mag'zidan xalq tabobatida tengi yo'q dorivor vositalar tayorlanmoqda va tabobatda unumli foydalanilmoqda [2].

O'rik – bo'yi 5-10 metrga yetuvchi, suvsizlikka chidamli bo'lgan daraxtsimon o'simlik. Yangi unib chiqqan shoxlari silliq, barglari shoxchalarda dona-dona joylashgan. O'rik 4-5 yilda mevaga kiradi. Erta bahor, bodomdan keyinroq barglari chiqishidan avval gullaydi. Gullari och pushti yoki oq rangda bo'lib, juft-juft bo'lib joylashadi. Mevalari sarg'ish-qizil rangda, suvli, shirin ta'mli. Danagi qalin, qattiq, silliq po'stli. Mag'zi madaniylashtirilgan turlarida shirin, quruqroq, yovvoyi holda o'suvchi turlarining mag'zi biroz tukli bo'lib, achchiq ta'mga ega. Yovvoyi holda o'suvchi o'rik xozirda Ximolay, Tyan-shan tog'larida, Shimoliy Kavkazda saqlanib qolgan [3].

O'rik Rosaceae oilasiga kiruvchi Prunus turkumiga mansub o'simlik bo'lib, uning vatani Armaniston hisoblanadi [4]. Chunki o'rik yevropaga aynan Armaniston orqali tarqalgan. Shuning uchun o'rikning lotinchadagi nomi xam *Prunus armeniaca* deb nomlanadi. O'rikni Rossiyaning janubiy o'lkalarida, xatto Sibir hududlarida xam uchratish mumkin. Shunday bo'lsada, o'rik issiq o'lkalarda O'rta Osiyoda, Turkiya, Eronda ko'p o'sadigan mevali o'simlik bo'lib, 30-40 yil meva beradi va 100 yilgacha yashashi mumkin.



***Prunus armeniaca* o'simligi, mevasi va mag'zi.**

O'rik bodom, shaftoli kabi mevali o'simliklar bilan bir oilaga (Rosaceae) va bir turkumga (Prunus) mansub bo'lsada ularning mevalari o'rtasida ajoyib farq mavjud: shaftoli mevasining po'sti yeyiladi, mag'zi yeyilmaydi, bodom mevasining po'sti yeyilmaydi, mag'zi yeyiladi, a o'rikni esa po'sti xam, mag'zi xam shirin, yeyiladi.

O'rikning yangi navlarini yaratish bo'yicha ko'plab seleksiya tadqiqotlari olib borilmoqda. Masalan, bir guruh olimlar tomonidan o'rikning Kavkazda o'suvchi turi bilan O'rta Osiyoda o'suvchi turi o'rtasida 19 xil gibril navlar yaratilgan [5].

O'zbekistonda bir yilda o'rtacha 662 ming tonnadan ortiq o'rik yetishtiriladi va uning 40% ini o'rik mag'zi tashkil etadi [2]. Umuman, o'rik mevasini quritish, quritilgan holda iste'mol qilish O'rta Osiyo xalqlarida keng tarqalgan. Shu nuqtai nazardan qaraganda, yuqorida ta'kidlanganidek ana shu mag'izni qayta ishlash va undan tabobatda unumli foydalanish muhim vazifa hisoblanadi. O'rik mag'zi boshqa mag'izli mevalar kabi tarkibida ko'p miqdorda oqsillar, almashinadigan va almashinmaydigan aminokislotalar, yog'lar, to'yingan va to'yinmagan yog' kislotalari, uglevodlar va ko'plab mikroelementlar tutadi [6].

Mualliflar tomonidan O'zbekistonda o'suvchi o'rikning 9 ta turi o'rganilib, ular mevasining mag'zida quyidagilar aniqlangan: vitamin V₁₇ – amigdalin, vitamin RR, yog'lar,



to'yinmagan yog' kislotalari: olein (29%) va linol 11% kislota, to'yingan yog' kislotalaridan palmitin kislota, oqsillar, uglevodlar, Mg, K, Na, P, Ca, Fe kabi mikroelementlar, fosfolipidlar, tokoferollar [2]. To'yinmagan yog' kislotalaridan olein va ayniqsa vitaminsimon modda hisoblangan, organizmda xolesterin almashinuvini boshqaruvchi, tromblar hosil bo'lishini oldini oluvchi yog' kislotasi – linol kislotaning ko'p miqdorda mavjudligi o'rik mag'zining avzalliklaridan biridir.

Prunus turkumiga kiruvchi, mag'iz tutuvchi boshqa o'simliklar mevalari kabi o'rik mag'zi xam tarkibidagi yog' kislotalari, vitaminlar, tokoferollar hisobiga antioksidantlik hossaga ega. Antioksidantlar tirik organizmlarda teri, ko'z to'qimalarining sog'lom bo'lishini, immun sistemaning mustahkam bo'lishini ta'minlaydi. Mg va K mavjudligi yurak-qon tizimi uchun foydali bo'lib, organizmda muskullar, yurak muskullari va asab tomirlarining baquvvat bo'lishini, yurak urishi ritmining boshqarilishini ta'minlaydi, qon bosimini me'rlashtirishda yordam beradi. Fe esa eritrotsitlar ishlab chiqarilishida ishtirok etib, kamqonlikni oldini oladi. O'rik mag'zida mavjud Sa va R suyak va tishlarning mustahkam bo'lishini ta'minlaydi.

O'rik mag'zi tarkibida oz miqdorda bo'lsada amigdalin tutadi. Amigdalin mag'izga biroz achchiqroq ta'm beradi. Ba'zan o'rik mag'izlari orsida o'ta achchig'i uchrab qoladi. Bu tarkibida amigdalinni ko'proq tutgan mag'iz hisoblanadi. Bunday mag'izni iste'mol qilmagan ma'qul. Chunki amigdalin organizmda gidrolizga uchrab, zaxarli modda hosil qiladi. Shuni ham ta'kidlash joizki, amigdalin issiqqa chidamli bo'lib, turli xil kompot va soklar tayorlanganda xam ulardagi mag'iz tarkibida amigdalin parchalanmasdan o'z tuzilishini saqlab qoladi.

Lekin amigdalinning oz miqdori organizm uchun foydali bo'lib, olimlar tomonidan uning o'smalarning o'sishini to'xtatuvchi xususiyati borligi aniqlangan. Olimlar tomonidan amigdalin **vitamin B₁₇** deb atalib, uning asosida "Laetril" deb nomlangan preparat ishlab chiqarilgan. "Laetril" tabiiy manba'lardan olingan toza amigdalin tutuvchi, rakka qarshi qo'llaniluvchi tibbiy preparat nomi [7].

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Аскарлов И.Р. // Табобат қомуси. // Тошкент, "Мумтоз сўз", 2019.
2. Ямалетдинова М.Ф., Нарзиев М.С. // Анализ физических характеристик косточек абрикоса // *Universum: Технические науки: электрон. научн. журн.* 2019. № 5(62). URL: <http://7universum.com/ru/tech/archive/item/7255>.
3. Майоров С. Р. // Абрикос // *Большая российская энциклопедия* / С. Л. Кравец. // - М.: Бол. Рос. энциклопедия, 2005. -Т. 1. - С. 33 - 34. - 768 с.
4. Есаян Г. С. // Культура абрикоса в Армении. - Ереван: Айастан, 1977.
5. Рихтер А. А. // Вклад Никитского ботанического сада — Национального научного центра в селекцию на качество плодов косточковых растений рода *Prunus* L. // *Plant Varieties Studying and Protection*, №. 1, 2013, с. 29-34.
6. Лобанов В.Г. // Биохимия и товароведение масличного сырья. // Учебник. -7-е изд., стер. - СПб.: Издательство «Лань», 2016. — 392 с.
7. <https://onco.rehab/publikacii/stati/poleznye-materialy/kostochki-abrikosa-protiv-raka/>

